

*Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Tasviriy san’at” kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi;*

*Ibragimova Sabina, Norkulova Feruza, Ismotullayeva Nilufar - talabalar*

## **MANZARA TASVIRLASHDA TALABALARING MUNOSABAT BILAN ISHLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Metodik adabiyotlarga asoslanib, biz talabalarning munosabatlar bilan ishlash malakasini samarali egallashiga yordam beradigan mashq sifatida yorug’likka qarshi manzaradan foydalanishni taklif qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** manzara, staffaj, umumlashtirish, yaxlit ko‘rish, taqqoslash, “kontrajur”, munosabatlar bilan ishlash.

Manzarani tasvirlash rassomlar uchun tasviriy san’atning eng keng tarqalgan va sevimli janrlaridan biri hisoblanadi. Rassom bevosita manzara janrida ishlama ham, u yoki bu tarzda uning asarlarida tabiat motivlari mavjud. Boshqa janr singari, manzara ham o‘ziga xos rivojlanish tarixiga ega, turli xil o‘zgarishlar bo‘lib ular “kichik janrlar”ga bo‘linadi.

“**Manzara**” tushunchasi nimani o‘z ichiga oladi va bu janr tasviriy san’at tarixida qanday paydo bo‘lgan? Milliy entsiklopediyada [1,444] manzara iborasi (frantsuzcha, “paysage”, “pays” - “mamlakat, hudud”; lotincha “pagus” - “qishloq, ovul”; inglizcha “landscape”; nemischa “landshaft” - tasviriy san’at janri, asosan dastgohli rangtasvir va grafika, tabiiy yoki inson tomonidan o‘zgartirilgan tabiatning tasviri, muayyan muhit, manzaralarning xarakteri, tog‘lar, o‘rmonlar, dalalar, shaharlar, tarixiy obidalar turlari, o‘simglikning barcha boyliklari va xilma-xilligini anglatadi. Manzarada muhim ko‘rinishi rassom tomonidan tanlangan naturasi yoki kompozitsiyasi (ideal) tabiat motivi bo‘lib, u go‘yo asarning “asosi”ga aylanadi. Manzara kompozitsiyasidagi kichik syujetli sahnalardagi odamlar yoki hayvon-larning alohidagi figuralari - muhim o‘ringa ega emas, ularni **staffaj** deb atashadi, ya’ni manzarani to‘ldirish va jlonlantirish vositasi hisoblanadi. Tasvirlanadigan asarning haqiqiy markazi - bu bizni o‘rab turgan tabiat dunyosi, u bilan inson hamjihatlikda va monandlikda yashaydi. Shu bilan birga, tabiat tasvirlarida rassomning dunyoqarashi va uning davri, tabiat dunyoni idrok etishning milliy, tarixiy jihatdan aniqlangan xususiyatlarini ifodalaydi.


Manzara janri nafaqat tabiatning cheksiz xilma-xilligi va go‘zalligini yilning turli vaqtlarida, turli iqlim sharoitida, quyoshli va oydin kechasini ifodalaydi, balki his-tuyg‘ularni va kayfiyatni ham yetkazadi. K.Koro, Van Gog, P.Sezannning manzaralarini solishtiring, ularning har biri haqiqiy tabiatga asoslanganligini ko‘rasiz, lekin tasvirlar juda boshqacha ko‘rinadi, chunki asosiysi rassomning individualligidir. U naturani chizmaydi, balki rangtasvirda o‘zining ichki his-tuyg‘ularini aks etadi, shuning uchun har bir rassomning o‘ziga xos ranglar aralashmasi, usuli va rangga individual munosabati mavjud.



Koro.Tog‘ga yo‘l. V.Gog.Yashil bug‘doy maydoni. P.Sezann.Monjeraga yo‘lning burilishi.

O‘.Tansiqboevni tabiatning qo‘sishchisi deb atashgan. Rossiyaning ajoyib manzarachi rassomlari F.Vasilev, V.Polenov, A.Savrasov, I.Shishkin, O‘zbekistonning iste‘dodli ijodkorlari A.Volkov, O.Tatevosyan, Usto Mo‘min (A.Nikolayev), N.Kashina, Ye.Karavay, M.Kurzin, N.Karaxan, U.Tansiqboyev va boshqalar edi.

O‘scha davrda mustaqil printsipga ega, katta tajriba maktabini bosib o‘tgan, ijodiy shakllangan, dunyoqarashi muayyan darajada qaror topgan, talantli ijodiy kuchlar guruhi ko‘plab manzaralar yaratgan.



N.Karaxan. Kechkuron. Usto Mo‘min. Bolalar bedana bilan.U.Tansiqboev. Mening qo’shig’im.

“Rassom naturani yengishi kerak yoki natura rassomni”, – deydi rassom Isfandiyor Haydarov. [2, 42] Mana shu kurash jarayonida hayot-momot olishuvi vujudga keladi. San‘atkor yengilsa – u ijodkor bo‘lmaydi, naturaning quli bo‘lib qolib, umrini behuda o‘tkazadi. Bunga O‘zbekiston rassomchiligidagi misollar juda ko‘p. Agar rassom naturani yengsa, ko‘nglida, vujudida paydo bo‘lgan tuyg‘ular, fikrlarini o‘z istagi yo‘liga buolsa, naturaning ichki qonuniyatlarini mahorat kuchi, ishchanligi va qat’iyati bilan bo‘ysundiolsa, shundagina musavvir natura bilan xohlagan ishini bajara oladi.

Manzara tasvirini naturadan muvaffaqiyatli chizishni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan eng muhim vazifalardan biri bu talabalarda yaxlit ko‘rishni va munosabatlar bilan ishlash malakasini shakllantirishdir. Yorug‘lik, kenglik va tabiatning holati - atrof-muhit bilan bog‘liq ranglarni ko‘rish va ularni tasvirlashda yordam beradi. Shunday qilib, talabalarda narsa ranglarining

birligini tasvirlash malakasi paydo bo‘ladilar va bu ularning rang kolorit tuyg‘usini rivojlantiradi.

Munosabatlar bilan ishslash naturaning turli elementlarini bir-biri bilan solishtirishni, ikkinchi darajali mayda qismlarni asosiy buyumlarga bo‘ysundirish malakasini o‘z ichiga oladi. “Naturaning yorug‘-soya va rangdor munosabatlarini kartina tekisligida to‘g‘ri yetkazish uchun ularni aniqlashni yoki rassomlar aytganidek, ularni ko‘rishni o‘rganish kerak”, deb yozgan rassom-pedagogi A.P. Yashuxin [3, 31]. Talaba rang doiralarini aniqlashi uchun u nimani solishtirish kerakligini, naturani asosiy tusli massalarga qanday tamoyil bo‘yicha ajratish kerakligini tushunishi kerak. Talabaga manzara tasvirini o‘rgatishda shakllanishi kerak bo‘lgan bиринчи malakasi bu uning naturani asosiy tusli massalarga bo‘lish mahoratdir. Shu maqsadni amalga oshirishda mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida maxsus mashqlar bajariladi.

Ushbu mashqlardan birinchisi yorug‘likka qarshi manzarani tasvirlash (kontrajur).

O‘quv amaliyoti(plener) shuni ko‘rsatdiki, manzaraning ushbu varianti tayyorgarlik mashqi sifatida mashg‘ulotning dastlabki bosqichida kiritilishi kerak. Yorug‘likka qarshi manzara talabalarga naturadan manzara rangtasvirining ko‘plab qonuniyatlarini tezda anglashga yordam beradi.

U talabalarga munosabatlar bilan ishslash asoslarini, xususan, naturani tahlil qilish va uni asosiy tusli massalarga ajratishni o‘rgatadi. Tajribasiz talabalar manzara detallari ustida ishlaganda ko‘pincha butunlik tuyg‘usini yo‘qotadilar, mayda shakllar va rangli dog‘larni sanab o‘tish bilan mashg‘ul bo‘ladilar va manzaraning qaysidir qismini butunga bo‘ysundirmasdan, to‘g‘ri tasvirlashga harakat qiladilar. Yorug‘likka qarshi manzarani bo‘yashda mayda qismlari umumlashtiriladi, bu talabalarning yetarli bo‘lmagan tajribasini hisobga olgan holda, ularning diqqatini manzaradagi asosiy muammolarni hal qilishdan juda chalg‘itadi, yorug‘lik va rangdor kontrasti kuchli ifodalanadi. Talabalar rangtasvirni ishslash va idrok etishning ko‘plab namunalarini, masalan, siluet tushunchasini, rang xarakterini, ranglar shkalasini aniqlashni va hokazolarni keyingi rangtasvir ishlarida kerak bo‘lishini aniq sezadilar. Bundan tashqari, yorug‘likka qarshi manzara mashqi tabiiy ravishda talabalarni naturaga bir butun sifatida qarashga o‘rgatadi. Rang-tusli munosabatlarni aniqlashda yaxlit ko‘rishning muhimligi “Rangtasvir” (muall. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N.) kitobida, “keng ko‘rinish”ning turli usullarini batafsil tavsiflab beradi [6]. Talaba yorug‘likka qarshi manzarani chizganda, uning yuziga quyosh charaqlab porlaydi, ko‘zlarini qisib qarashga majbur qiladi, buning natijasida talaba naturani umumlashtirib, yaxlit ko‘radi. “Yorug‘likka qarshi manzara” mashqining samaradorligi uchun majburiy shart - bu o‘qituvchining amaliy namoyishi hisoblanadi. O‘qituvchi ushbu holatning xarakterli xususiyatlarini aniq tushuntirishi, uni tasvirlashning to‘g‘ri bosqichlarini ko‘rsatishi va talabalar e’tiborini keyingi o‘quv jarayoni uchun eng muhim tomonlarga qaratishi kerak. O‘qituvchining amaliy ko‘rsatuvidan so‘ng ko‘pchilik talabalar manzaraning yorug‘likka qarshi holatini yetarlicha darajada ishonarli tarzda tasvirlay olishdilar, bu esa ularda ish natijalari va tasvir qonuniyatlariga rioya qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashga, rangtasvirga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga sabab bo‘ldi. Mashg‘ulotning dastlabki bosqichida yorug‘likka qarshi manzaralarni bajarish samaradorligi bir necha bor sinovdan o‘tgan. Talabalar naturani tahlil qilishni, manzaralarning boshqa variantlarini bajarishni, siluetni yaxshiroq his qilishni, munosabatlar bilan ishslashni boshlaydilar, bu ilgari olingan bilimlarning naturani idrok etish jarayoniga ta’siri bilan bog‘liq. [4]. Bundan tashqari, o‘quv yili davomida bunday mashqlarni bajarish bilan ochiq havo amaliyotiga alohida chiqishlar tashkil etilishi natyurmort rangtasviriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu mashqning samaradorligi, birinchidan, talabalar oddiyroq vazifalarni samarali bajarishlari, ikkinchidan, ular aniq ko'rganlarida qonuniyatlarini yaxshi tushunishlari bilan bog'liq. "Kontrajur" holatida bu qonuniyatlar aniq ko'rindi, ularni tushunish dastlabki bosqichda aniq zarur: naturani tahlil qilish, uni asosiy tusli massalarga bo'lish, umumlashtirish, yorug'lik tufayli narsa rangining o'zgarishi, yaxlit ko'rish, munosabatlar bilan ishlash. Shu sababli, rangtasvir jarayonida yorug'likka qarshi manzaradan foydalanishni kengaytirish foydali bo'ladi, masalan, murakkab manzarani tasvirlashda birinchi etyud sifatida manzaraning asosiy tusli massalari va tuzilishini ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

Turli yorug'lik sharoitida oddiy manzara motivlarini rangli tasvirlash, kun va kunning holatining xususiyatlarini ko'rsatish. Bajariladigan asosiy vazifalar: qog'oz varag'i tekisligida natura motivni topish va joylashtirish, ko'rish nuqtasini, usq chizig'ini aniqlash, rang-tusli munosabatlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Manzaraning vazifalaridan biri yilning va kunning turli vaqtlarida yorug'lik ta'sirida yoritilgan holatini ko'rsatishdir. Tabiatning holati doimo o'zgarib turadi va butun qiyinchilik uning aniq va ishonchli tasvirlashidadir. Bu topshiriqda talabalar aniq manzara motivida tusli va rang munosabatlarining qanday o'zgarishini kuzatishlari, ya'ni rang va havoyi perspektivalari kabi kompozitsiya vositalardan foydalanishlari kerak. Yorug'-soya va ranglar munosabatlarining to'g'ri taqsimlanishi syujetni ochishga, holatni yetkazishga yordam beradi va ifodaviy vosita hisoblanadi.

Ushbu topshiriqni bajarishda mashq sifatida kun davomida bir xil tabiat motivning rangdor va tusli holatidagi o'zgarishlarni kuzatish taklif etiladi. Muayyan yorug'liksiz talabaning manzaraga hissiy munosabati mumkin emas va hissiy kayfiyatsiz obrazli talqin qilish mumkin emas. Yoritish tufayli biz bir xil tabiat motivni tashvishli yoki lirik holatda sezib qabul qilishimiz mumkin. Ajoyib misol tariqasida K. Monening turli yorug'lik effektlariga ega seriyali asarlari: Ruan sobori, Vaterloo ko'prigi, Venetsiya ertalab va kechqurun, liliya bilan hovuz ustidagi ko'pri, teraklar va pichanlar. Ajoyib manzara tasviri bilan, uning kunning turli vaqtlarida tus va rang bo'yicha munosabatlar manzaradagi o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. [rasmlar].



Shuday qilib, talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish ularga o'quv-kognitiv va kreativ faoliyat o'rtaсидаги bog'liqliк tushunchasini shakllantirish imkonini beradi.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. - Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003. – 444-б.
2. Эгамбердиев А. XX-аср Ўзбекистон рангтасвирида картина ривожи. Т.: 2009. 42-б.
3. Яшухин А.П. Живопись. Учебное пособие. - М.: Просвещение, 1985. 31-б.
4. Кузин В.С. Психология живописи. Издание 4е, исправл. - М.: Оникс, 2005.
5. Унковский А.А., Смирнов Г.Б. Пленэр (практика по изобразительному искусству). - М.: Просвещение, 1981.
6. Абдирасилов С., Толипов Н., Орипова Н. Рангтасвир. Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2006.
7. Абдирасилов С., Азимов Б. Рангтасвир. Т.: Мусиқа нашриёти, 2011.
8. Молева Н.М., Белютин Э.М. Выдающиеся русские художники-педагоги. - М.: Просвещение, 1991.
9. Abdirasilov, S. F. (2022). Patriotic Education of Schoolchildren by Means of National Fine Arts. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(5), 52-58.
10. Абдусаломходжаев Нозим Низомхужаевич, Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Акбархужаев Абдулазиз Ахмадходжаевич (2017). Мастер-класс живописи от мастеров. Наука, образование и культура, (9 (24)), 73-75.
11. Boltaboev A.K., & Abdirasilov S.F. (2023). METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. Экономика и социум, (3-2 (106)), 57-60.
12. Komoldinov S.J., & Abdirasilov S.F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. Экономика и социум, (3-2 (106)), 168-171.
13. Abdirasilov, S., & Maxkamova, S. (2019). Research of Structure of Fractals in a Life of Mankind and Fine Arts Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 302-305.
14. Sidikova, M.S. (2024). TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPITENTLI YONDASHUV MASALALARI. Results of National Scientific Research International Journal, 3(4), 76-79.